

Makale Bilgisi | Article Information

Makale Türü / Article Type:

Araştırma Makalesi / Research Article

Geliş Tarihi / Date Received: 07.02.2024

Kabul Tarihi / Date Accepted: 21.02.2024

Yayın Tarihi / Date Published: 30.06.2024

İntihal | Plagiarism

Bu makale, iThenticate yazılımınca taranmıştır. İntihal tespit edilmemiştir. / This article has been scanned by iThenticate. No plagiarism detected.

Değerlendirme | Peer-Review

İki Hakem / Çift Kör Hakem

Double anonymized - Two External

Atıf | Citation

Djumaniyazova, F., Nuriddinova, N. (2024). O'zbeklarda Uloq-Ko'pkari O'yinining Tarixi Xususida. *ÇAKÛTAD*, 4 (1), 1-14.

Telif Hakkı | Copyright

(CC BY-NC 4.0) Uluslararası Lisansı altında lisanslanmıştır. / Licensed under the (CC BY-NC 4.0) International License.

Etik Beyan | Ethical Statement

Bu çalışmanın hazırlanma sürecinde bilimsel ve etik ilkelere uyulduğu ve yararlanılan tüm çalışmaların kaynakçada belirtildiği ve yazarın sorumluluğunda olduğu beyan olunur. / It is declared that scientific and ethical principles have been followed while carrying out and writing this study and that all the sources used have been properly cited.

Etik Kurul İzni/Ethics Committee Permission

Bu çalışma için etik kurul izni gerekmemektedir. Yaşayan hiçbir canlı (insan ve hayvan) üzerinde araştırma yapılmamıştır. / Ethics committee permission is not required for this study. No research has been conducted on any living creature (human or animal).

Finansman ve Çatışma Beyanı | Grant Support and Conflict of Interest

Bu araştırmayı desteklemek için dış fon kullanılmamıştır. / The author(s) acknowledge that they received no external funding in support of this research.

Makalenin yazarı, bu çalışma ile ilgili herhangi bir kurum, kuruluş, kişi ile mali çıkar çatışması olmadığını ve yazarlar arasında çıkar çatışması bulunmadığını beyan eder. / The author of the article declares that there is no financial conflict of interest with any institution, organization, or person related to this study and that there is no conflict of interest between the authors.

O'ZBEKLARDA ULOQ-KO'PKARI O'YININING TARIXI XUSUSIDA

Özbeklerde Ulak-Kupkari Oyununun Tarihi Üzerine

[On the History of the Ulaq-Kupkari Game in the Uzbeks]

Feruza DJUMANIYAZOVA 

PhD,
O'zR FA SHI, Katta Ilmiy Xodim,
Toshkent/O'zbekiston,
jumaniyazova84@gmail.com

Muyassar NURIDDİNOVA 

Dotsent,
O'zbekiston Jismoniy Tarbiya va Sport Universiteti,
Toshkent/O'zbekiston,
nuriddinova.muyassar83@mail.ru

Annotatsiya

Turkiy xalqlarning ot o'yinlari azaldan mashhurdir. Aslida "Ko'pkari-uloq" kabi o'yinlar butun turkiy xalqlarning o'rtoq milliy merosi sanaladi. Xususan, o'zbek xalqining ot bilan bog'liq juda ko'p o'yinlari mavjud. "Ko'pkari-uloq", "Poyga", "Qiz quvmoq", "Ag'darish", "Ot ustida qilichbozlik", "Oltin qoboq", "Chavgon", "Sulton shahzoda" (boshdan parni urib tushurish) shular jumlasidandir. Bugungi kunda "Qiz quvmoq", "Oltin qoboq", "Chavgon" o'yinlari tarixiy etnosport turlariga aylangan bo'lsada, "Ko'pkari-uloq" hozirda ham o'ynaladigan ot o'yinlarining eng yirigi va keng yoyilganlaridan biridir. Bugungi kunda Tojikiston va Afg'oniston hududida "bo'zkashi" deb o'ynaladigan o'yinning ham o'zagini o'zbek ko'pkarisi tashkil qiladi. O'zbekiston hududi ko'pkariga chopadigan zotdor otlar – qorabayirlar o'lkasi ekanini ham alohida ta'kidlamoq joiz. Zero, o'zbek xalqining maqollar xazinasidan "Ot-yigitning yo'ldoshi", "Ot-yigitning qanoti" kabi yuzlab maqollar o'rin olgani ham o'tning azaldan o'zbeklarning ijtimoiy turmush hayotida muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. O'zbeklarda bu mashhur ot o'yini ko'pkari, uloq, eski shaklda esa ko'kbo'ri nomlari bilan atalgan. U O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida o'ynalgani haqida yozma va etnografik manbalarda ma'lumotlar mavjud. Ushbu o'yinning asosan sunnat to'ylarda o'tkazilishi esa uning xalq tili bilan aytganda "er yigitning ori" ekanidan darak beradi. O'zbeklarda ko'pkarining ma'nodoshi sifatida ishlatiladigan "uloq" so'zi ushbu o'yinda otdan keyin ikkinchi markaziy o'rinni egallangan "o'g'laq" (echki) o'zagi bilan aloqadordir, bu o'yin ko'p

hollarda echkini qo'lma-qo'l olib qochib marraga yetkazish bilan xususiyatlanadi. Bu o'yin shuningdek o'zbeklarda o'troq dehqonchilik bilan birga xo'jalikning yana bir muhim sohasi – dasht chorvachiligi ham taraqqiy qilganini ko'rsatadi. Markaziy Osiyoda uloq-ko'pkari etnosport turi xususida ko'plab maqolalar yozilgan, jismoniy tarbiya va sport tarixida eng ko'p o'rganilgan mavzulardan hisoblanadi. Shunga qaramay, o'zbek xalqi yoki umumiy turkiy tarixning qaysi davrida bu o'yin va uning nomi yuzaga kelgani masalasi ochiqligicha qolmoqda. Quyidagi maqolada mavjud yozma manbalar va tadqiqotlar ma'lumotlariga tayanib, o'zbeklarda uloq ko'pkari o'yinining paydo bo'lishi va tadjriy rivojlanishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit So'zlar: Ko'pkari, etnosport, Turklar, O'zbeklar, Oltin Qoboq.

Öz

Türk halklarının at oyunları çok eski çağlardan beri meşhurdur. Aslında Kupkari-Ulak gibi oyunlar bütün Türk halklarının ortak milli mirası sayılır. Dolayısıyla Özbek halkının atla ilgili birçok oyunu vardır. Bunlar arasında “Kupkari-Ulak”, “Payga”, “Kız kovalamak”, “Ağdariş”, “Ot ustida kiliçbazlık”, “Altın kabak”, “Çevgan”, “Sultan şehzade” oyunları yer alıyor. Günümüzde “Kız kovalamak”, “Altın kabak”, “Çevgan” oyunları tarihi etnospor ve geleneksel hâline gelmiş olsa da “Kupkari-Ulak” günümüzde hâlâ oynanan en büyük ve en yaygın at oyunlarından biridir. Günümüzde “bozkaşı” adı verilen, Tacikistan ve Afganistan'da oynanmakta olan oyunun esası da Özbek kupkari/ulak oyunundan oluşmaktadır. Özbekistan topraklarının birçok at oyununda koşan safkan atların - Karabayirlerin ülkesi olduğunu belirtmek gerekmektedir. Sonuçta Özbek halkının atasözleri hazinesinde “At oğlanın yol arkadaşı”, “At oğlanın kanadı” gibi yüzlerce atasözünün bulunması, atın Özbeklerin sosyal hayatında önemli bir rol oynadığını göstermektedir. Özbeklerde bu ünlü at oyununa kopkari, ulak, eski adıyla kokbori adı verildiğini görüyoruz. Özbekistan'ın hemen her bölgesinde oynandığına dair yazılı ve etnografik kaynaklarda bilgiler bulunmaktadır. Bu oyunun daha çok sünnet düğünlerinde oynanması, halk dilinde “yiğidin vicdanı” olduğunu gösteriyor. Özbeklerde "oğlak" kelimesinin eş anlamlısı olarak kullanılan "oğlak" kelimesi, bu oyunda attan sonra ikinci merkezi yeri işgal eden "oglaq" (keçi) köküyle ilgilidir. Bu oyun genellikle binicilerin keçiyi alıp bitiş çizgisine koşmasıyla karakterize edilir. Bu oyun aynı zamanda Özbeklerin yerleşik tarımın yanı sıra ekonominin bir diğer önemli kolunu da - bozkır hayvancılığını - geliştirdiklerini gösteriyor. Orta Asya'da ulak-kupkari etnosporu hakkında birçok makale yazılmış olup beden eğitimi ve spor tarihinde en çok çalışılan konulardan biridir. Ancak bu oyunun ve adının Özbek halkının veya genel Türk tarihinin hangi döneminde ortaya çıktığı sorusu hâlâ cevapsız kalmaktadır. Aşağıdaki makalede, mevcut yazılı kaynaklara ve araştırma verilerine dayanarak Ulak-Kupkari oyununun Özbekler arasında ortaya çıkışı ve aşamalı gelişimi anlatılmaktadır.

Anahtar Kelimeler: Kupkari, etnospor, Türkler, Özbekler, Altın Kabak.

Ko'pkari O'yini Umumturkiy Kontekstda: Ko'kbo'ri Bilan Bog'liqligi

Hozirgi kunda ko'pkari o'yini Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Afg'onistonda keng tarqalgan milliy sport turi sanaladi. Erkaklarning kuch-qudrati, chavandozlik hamda ephillik mahoratini sinovchi ushbu milliy sport ming yillardan beri o'zbekning ajralmas va o'ziga xos ot musobaqasidir. Ushbu o'yin o'zbeklarda "ko'pkari" yoki "uloq", qirg'izlarda "ko'kbo'ru" (Türkmen, 2020, s. 30-59), qozoqlarda "ko'kpar tortu" (Amanjol, 2015, s. 17), tojiklar va afg'on o'zbeklarida "bo'zkashi" deb yuritiladi (Qoraboyev, Abdurahmonov, 2014, s. 31; Shifoatov, 2009, s. 9). Oltoydagi turkiy qavmlar va qirg'izlarda bu o'yinning chavandozlariga "bo'rilar", shimol qirg'izlari bu milliy sportni "uloq tortish", o'yinchilarni esa "uloqchilar" deb atashadi. Ba'zan uning "ko'kpar" shakli "ko'k pari"dan kelib chiqqanligi ham aytiladi.

Qadimdan ot o'yinlari turkiy xalqlar ijtimoiy hayotining ajralmas bo'lagi bo'lgan. Qozog'istonning shimolidan topilgan Botay madaniyati vakillari bundan 5,5 ming yillar oldin yovvoyi otlarni xonakilashtirganligi arxeologik materiallar orqali mutaxassislariga ma'lum (Zaxarov, 2010, s. 49-58; Kuznetsov, 2018, s. 16-19). Bundan tashqari Qadimgi Farg'ona/Davan davlatining xitoyliklarni o'ziga jalb qilgan "samoviy otlari" ham mashhurdir (Anorboyev, 2008, s. 93; Xodjayev, 2008, s. 179-183). Turkiy xalqlarda milliy ot sportining ko'pkaridan boshqa turli nomdagi shakllari – qiz qumay, yigit quu, chavgon, enish/oodarish, ot ustida kurash, ukuruk salmaqtuu, oltin qoboq, beyge (poyga), audarispak, tenge alu, jambi atuu, at omiraulastiruu, jorg'a jaris, kumis aluu yoki juzuk iluu, tumaq uruu kabi ot o'yinlari mavjud (Türkmen, Genç, Abdibekova, 2017, s. 73-76). Bu o'yinlarning barchasi otni xonakilashtirgandan so'ng ko'ngilocharlik va askarlarni jangga tayyorlash maqsadida o'ylab topilgan.

Aslida o'zbeklarning ko'pkari o'yinining eski nomi "ko'kbo'ri" deb hisoblash mumkin, bu nom qadimiy umumturkiy atamadir. Juft o'zakdan kelib chiqqan "ko'kbo'ri" atamasining birinchi qismi "ko'k" aslida "moviy rang" ma'nosini berishi hammaga ma'lum (Türkmen, 2020, s. 32). Eski turkiychada "ko'k" to'g'ridan-to'g'ri Tangrini anglatgan, ya'ni Ko'ktangri qadimgi turk xalqlarining diniy inonchlarida umumiy bir kult sifatida qabul qilingan. Ko'ktangri ilohlarning eng ulug'i va turkiy xalqlarga jangujadallarda zafar keltiruvchi, falokatlardan asrovchi va hoqonlarni taxtga chiqaruvchi hamda ularga "qut"(baraka) ato etuvchi deya talqin qilingan. Hoqonlar yer yuzida Ko'ktangrining vakillari deb qaralgan. Shuning uchun bo'lsa kerak turkiylarni anglatgan rang hamisha ko'k/moviy bo'lgan. Ikkinchi o'zak esa bo'ridir. Ma'lumki, qadimgi turkiylarning muqaddas hayvoni, ya'ni totemi – bo'ri bo'lgan. Qadimgi davrlardan beri bo'ri

turkiylarning yo‘l ko‘rsatuvchi, aql va jasorat beruvchi, erkinlik va mustaqillikning ramzi sifatida qabul qilingan. Xitoy manbalarida turk hoqoni bilan birga bo‘ri atamasi barobar tushunilgan, ya‘ni kuch-qudratli hoqonlarga “tamoman bo‘ri xususiyatiga ega odam” deb baho berilgan. Qadimgi turkiylarning muqaddas hayvoni bo‘lgan bo‘rini “ko‘kbo‘ri” deb atashining sababi bor edi, albatta. Bir narsani tariflash uchun “ko‘k” so‘zi bilan atash uni yanada muqaddaslashtirish va uni qadimgi turkiylarning ilohi – Tangri bilan bog‘lash istagidan kelib chiqqan (Türkmen, 2020, s. 32). Etnograflar Oltoydagi turkiy qavmlarda bo‘ri uligan payti oltoyliklar Qurt (bo‘ri) Tangridan o‘zlariga baraka va yemak so‘rash odati bo‘lganini yozishadi. Xususan, “O‘g‘uznoma”da “ko‘k yungli, ko‘k yolli” (ilohiy, muqaddas) bo‘rining O‘g‘uzxonga yo‘l ko‘rsatganligi aytiladi. “O‘g‘uznoma” dostonida “ko‘kbo‘ri afsonaviy O‘g‘uzxonning jangovar chaqirig‘i – o‘roni (paroli) sifatida qabul qilingan (Jo‘rayev, 1983, s. 13).

Xususan, qiziqarli tomoni shundaki, Xorazmda o‘zbek ko‘pkarisi “ko‘kbo‘ri” deb atalgan va unda so‘yilgan, kallasi kesilib va tikilgan holatda o‘ynalgan. O‘z urug‘ nomini yaxshi eslaydigan Shimoliy Xorazm o‘zbeklari (Gurlan)da “Ko‘kbo‘ri” uyini g‘olibi ko‘kbo‘rini, ya‘ni echkini o‘zi bilan olib ketib mahallasidagi qo‘ni-qo‘shnilari bilan baham ko‘rgani, uning go‘shtidan bir parchani kasal yotgan kishilarga dardiga davo bulsin uchun yedirganlar, terisi va junidan yulib olib tumor qilib osib qo‘yganlar (Qilichev, 1988, s. 97). Demak, bu fakt Xorazm o‘zbeklarida XX asr boshlarigacha bu o‘yin o‘z qadimiy nomi “ko‘kbo‘ri” sifatida saqlanib qolganini ko‘rsatadi. Yana shunidek, Shimoliy Xorazm va Xiva hamda Urganch shevalarida “ulaqmaq” degan fe‘l uchraydi va u “to‘g‘ri kelib yurgan yerda kezib yurmoq, tentiramoq” (Abdullayev, 1961, s. 89) ma‘nolarida kelib, fikrimizcha uning o‘zagi “uloq” o‘yini nomi bilan bog‘liqdir.

Shunday qilib, ko‘pkari nomining eski shakli “ko‘kbo‘ri” “Tangribo‘ri” degan ma‘noni beradi. Oltoyda yashagan turkiy qavmlarning bu o‘yin paydo bo‘lishi haqidagi falsafiy-mifologik qarashiga ko‘ra, ko‘kbo‘ri o‘yini chavandozlarining kuchi va quvvatini ko‘rsatgan, bo‘rilar galasiga o‘xshagan insonlar guruhi ruhini anglatgan qadimiy sport turidir. Oltoyning qadimgi turkiylarida ko‘kbo‘ri nomi “totem/muqaddas bo‘ri – ona” ma‘nosini beruvchi chuqur falsafiy anglash bilan bo‘riga bo‘lgan munosabatni bildiruvchi hamdir (Kljashturnyj, 2006, s. 446-454). Ma‘lumki, bo‘ri Yevrosiyo nomadlari tasavvurida qadimiy zootip va totemlaridan biri bo‘lgan. Shuning uchun bo‘ri obrazini Yevrosiyo ko‘chmanchilari san‘atida va ijtimoiy hayotida ko‘p uchratish mumkin. VI asrdan keyin Xitoy manbalarida Ashina turklari bo‘ri boshi surati tushirilgan bayroq bilan tasvirlana boshlaydi (Bichurin, 1950, s. 220-222). Xullas, bo‘ri Turk hoqonligining bosh urug‘i – Ashina turklarining ramzi edi. Turkiylarni kelib

chiqishi haqidagi rivoyatda ham bo'ri markaziy o'rinni egallaydi: "...Bu xonadon bir qo'shni hukmdorlari tomonidan qirib tashlanadi va mutlaqo yo'qotiladi. Faqat o'n yashar bola qoladi. Dushmanlar uning yosh ekanini ko'rib, oyoq va qo'llari kesib tashlab, o't-o'lan bilan qoplangan ko'lga tashlab ketadilar. Urg'ochi bo'ri uni go'sht bilan boqa boshlaydi. Qo'shni qabila boshlig'i bolaning tirikligini eshitib uni o'ldirishga qayta odam jo'natadi. Elchilar bolani urg'ochi bo'ringing etagida ko'rib, uni ham o'ldirishni istaydilar. Shu zamonlarda, xitoy rivoyatlariga ko'ra, bu urg'ochi bo'ri g'arbiy dengizdan sharqdagi mamlakatda, Gaochandan shimoliy g'arbdagi tog'larda paydo bo'ladi. G'orning barcha tomoni tog'lar bilan o'ralgan. Tog'larda g'or joylashgan, g'orda o'tlar bilan qoplangan tekis yer bor. Bu yerda yashiringan urg'ochi bo'ri o'nta o'g'il bola tug'adi, ular ulg'aygach, har biri oila qurib, bola-chaqali bo'ladi. Bir necha avlod o'tib, Asyan-she degan odam butun urug'-aymog'i bilan g'ordan chiqadi..." (Bichurin, 1950, s. 220-222). Qadimgi turklarning kelib chiqishi haqidagi afsonalar prototurk etnik jamoasi shakllana boshlagan davrga borib taqaluvchi bir necha folklor-etnologik xotiralarga aloqadorligini ko'rish mumkin. Bundan ko'rkari/ko'kbo'ri o'yinining qadimgi turkiy jamoa shakllana boshlagan qadimiy davrlarga borib taqaladi, deb xulosa qilish mumkin. Shuningdek, ushbu o'yin turkiylarning afsonaviy totemi – Ko'kbo'ri (muqaddas bo'ri) sharafiga atab o'ynalgan degan fikrlar ham mavjud (Türkmen, 2020, s. 32). Xullas, tarixda ot bilan birga tilga olinadigan turklar otni ilk marotaba xonakilashtirgan va unga ilk marta mingan qavmlar sifatida ko'rsatiladi.

O'yinning Shakllanishi

Ko'kbo'ri/ko'pkari o'yinining paydo bo'lishi haqida turli fikrlar mavjud. Chavandozlar qo'ylar suruviga hujum qilgan va ularni g'ayrioddiy ovlash shaklini taqlid qilish natijasida bu o'yin kelib chiqqan, shuning uchun ham bu o'yin "ko'kbo'ri" deb atalgan, deya mutaxassislar ta'kidlaydi. O'yin taktikasini qadimiy bir jang ta'limoti sifatida qarash ham mavjud. Bu o'yinda chavandoz va ot bir-birini so'zsiz harakatlar bilan tushungan holda asosiy maqsad sari harakat qilishi ham diqqatga sazovordir. Shuningdek, qadimgi turkiylarning jang an'alariga ko'ra, o'lgan jangchining jasadini jangdan olib kelgan askarga uning molu-mulki berilar edi. O'yin ko'klam kelishi bilan o'ynalganini ko'chmanchi tamaddunning o'troq madaniyat bilan omixtalashuvining nodir namunasi bo'lgan qadimgi turkiylarning qishning suronli kunlaridan eson-omon chiqib, ushbu xalqlarning eng yaqin do'sti va hayot manbai bo'lgan – otlar va arg'umoqlar bilan birgalikda nishonlagani aslida inson va buyuk dashtning eng yirtqich hayvoni –

muqaddas bo‘ri bilan ilk uchrashuvi sharafiga uyushtirgan deb ham sanash mumkin. Etnograflar qirg‘iz qariyalarining rivoyatlari asosida qirg‘izlarda ushbu o‘yinning shakllanishini qadim zamonlardan bo‘rini ovlash an‘anasi ta‘sirida kelib chiqqanligiga urg‘u beradilar (Türkmen, 2020, s. 43). Ya‘ni bir guruh chavandozlar bo‘rini orqasidan quvganlar, qalin qorda ularni quvalab, boshlariga katta xoda/tayoq bilan urib o‘ldirishgan va uni egariga ortib uyiga olib kelishga uringan. Boshqa chavandoz do‘stlari esa bo‘rining jasadini chavandozning qo‘lidan olishga uringan, bu shaklda bo‘ri ovlagan chavandozlar bo‘ri jasadini qo‘lma-qo‘l o‘tkazib, uyga qaytarkan ko‘pkari o‘yiniga o‘xshagan harakatlar qilgan va buning natijasida keyinchalik ko‘kbo‘ri o‘yini kelib chiqqan. Qozoqlarda ham cho‘ponlar doimiy ravishda ularning qo‘y suruvlariga hamla qilib, ziyon yetkazib turadigan ko‘k bo‘rini qo‘lga tushirganida, quvonganidan uning o‘ligini ot ustida qo‘lma-qo‘l qilib biriga o‘tkazib bayram qilish natijasida kelib chiqqanini yozadilar (Axmetov, Mamirqulov, 2017, s. 32). Ammo bo‘ri ovlash ta‘sirida bu o‘yin paydo bo‘lganini inkor qiluvchilar ham bor. Bundan kelib chiqadiki, ko‘kbo‘ri o‘yini bo‘rini otlar yordamida o‘ldirish asnosida shakllangan emas, balki turkiy xalqlarning o‘z totemi – Muqaddas bo‘riga bo‘lgan ritual munosabati ta‘sirida yuzaga kelgan deb ham qaraydilar (Türkmen, 2020, s. 43).

Endi o‘zbeklarda bu o‘yinning shakllanishiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, Janubiy O‘zbekiston dostonlik maktabiga xos xalq og‘zaki ijodi namunalarida biz ko‘pkari o‘yini haqida ma‘lumotga ega emasmiz, biroq unda ot o‘yinlaridan “oltin qoboq”, “chavgon” va “qiz quvmoq”ning mavjud bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, xalqimiz orasida qadimdan urf bo‘lib kelgan marosimiy rituellardan biri – “oltin qoboq” o‘q otish o‘yini doston syujetining shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan “Oltin qoboq” dostoni o‘zbeklarda mavjudligi xususiyatlidir. Unda haj safariga ketishdan avval Chambil elida boshqaruvni qabul qila oladigan munosib nomzodni aniqlash maqsadida Go‘ro‘g‘li tomonidan “oltin qoboq” o‘yining tashkil etilishi va bu bahsda Avazxonning g‘olib bo‘lishi tasvirlanadi (Jo‘rayev, 2021, s. 141). Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida ham garchi ko‘pkari o‘yini xususida batafsil ma‘lumotlar keltirilmasada, ot va otliq qo‘shinlar, chavgon o‘yini kabi unga o‘xshash narsalarni ko‘p uchratish mumkin. Zero, bugun sportning ommaviy turlaridan biri bo‘lgan “polo” o‘yini Yevropa va butun jahonda tarqalishiga uning asosi bo‘lgan “chavgon” o‘yini Boburiylar sabab Hindistonga borib qolishini ham unutmaslik kerak. Chavgon qadimiyroqmi yo ko‘pkari degan savolga javob berish qiyin, ammo yozma manbalar chavgonning uzoq davrga borib taqalishini ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotining mashhur vakili Alisher Navoiyning asarlarida sport turlaridan kurash, chavgon, shatranj, oltin qoboq kabi o‘yinlar tilga olinadi, biroq uloq ko‘pkari o‘yini haqida ma‘lumot uchramaydi. Xususan, “Chobukekim, har taraf maydon aro aylar

shitob...” deb boshlangan g’azalida xalqning azaliy “Qovoq” o’yini ta’riflangan (Meliyev, 2023, s. 302). Zahiriddin Muhammad Bobur o’zining “Boburnoma” asarining ikki joyida “oltin qoboq” o’yinidan quyidagi shaklda bayon qiladi: “Shijoati bor edi. O’zining qo’lidan ish kelgan hech bir holat bo’lmagan esa-da, aytishlaricha, ba’zi jang ma’rakalarida unda shijoat asari ko’ringan ekan. O’qni juda yaxshi otar edi. Ilvasinga patli va patsiz o’qlari ko’p hollarda tegardi. Nishon uchun qo’yilgan qovoqni maydonning u boshi, bu boshidan kelib ham aksar hollarda urar edi...” (Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008, s. 39.), “Yana, Islim barlos edi. Turk kishi edi. Qushchilikni yaxshi bilardi. Ba’zi ajoyib ishlarni qilardi. O’ttiz-qirq botmon yoy o’qini kuch bilan otib, taxtadan o’tkazardi. Qabaq (kamon otish mashqida qo’llanadigan nishon) maydonida maydon boshidan chopib, yoyni tushirib olib otib qovoqsimon nishonga urardi. Yana zehgirmi (barmoqqa kiyiladigan angishvonasimon uskuna) bir-bir yarim qari chilvirga bog’lab, chilvirning ikkinchi uchini bir yogochga mahkamlab, aylanar edi. Aylanish holatida o’qni otib, zehgirdan o’tkazardi”...(Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008, s. 39.). Bir o’rinda esa Bobur o’z asarida chavgon o’yini to’g’risida Hasan Ya’qubekka ta’rif berarkan, “...mardona kishi edi. O’qni yaxshi otar, chavgonni yaxshi o’ynardi” deb eslatib o’tadi...” (Zahiriddin Muhammad Bobur, 2008, s. 36). Ko’rib o’tganimizdek, ko’pkari o’yini yoki unga o’xshash ot o’yini sahnalari haqida ma’lumotlar yuqoridagi mualliflarning asarlarida uchramaydi.

O’zbek “Ko’pkari”si

“O’zbekiston milliy sport turlari va xalq o’yinlari ensiklopediyasi”da ko’pkari so’zining etimologiyasi turkiycha “ko’p”, fors tilidagi “kor” so’zlaridan tashkil topib, “ko’pning ishi” degan ma’noni beradi, deb talqin qilingan (O’zbek, 2022, s. 54). Taniqli o’zbek folklorshunosi Mamatqul Jo’rayevning fikricha, ko’pkari qadimiy o’yinlardan bo’lib, uning o’ynala boshlanishi O’g’uzxon nomi bilan bog’liqdir. O’sha davrlarda bu o’yinni “ko’kbo’ri” deb atashgan. Keyinchalik bu so’z “ko’pkari” deb talaffuz etilgan (Jo’rayev, 1993, 10 mart).

O’zbeklarda ko’pkari-uloq o’yini deyarli barcha viloyatlari – Samarqand, Jizzax, Toshkent, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy va boshqa viloyatlarning tog’li hamda cho’l zonalarida o’tkazilayotgan to’ylarda, ommaviy xalq sayillarida o’ynalib keladi (Tabinbayev, Kazakov, 2015, s. 12-13). Toshkent viloyati, Qo’qon va Farg’ona vodiysining ayrim joylarida bu o’yin “tomosha” deb nomlangan (O’zbek, 2022, s. 54). Qo’shni respublikalar – Afg’oniston va Tojikistonda ham ushbu o’yinni o’zbek urug’lariga mansub aholi o’ynaydi. Tojikiston va Afg’onistonning shimoliy

qismida yashovchi o'zbeklar ham uloq o'yini o'ynaydilar va u biroz farqlidir. Xususan, Tojikistonning Asht viloyatida yashovchi qurama o'zbeklari uchun uloq o'yini qadimiy o'yinlardan deb hisoblanadi. O'zbekistonning Xorazm mintaqasida bugungi kunda uloq o'yini o'ynalmagani bois ko'pchilik azaldan ushbu o'yinning mazkur mintaqada keng tarqalmaganini aytadi. XX asrning boshlarigacha bo'lgan davrda Xorazmning shimolida yashagan uzbeklar orasida xalq sayillarida "Qiz quvish" o'yini o'tkazilgan. Bu o'yin birinchidan ot o'yinida qizlar ham qatnashganini ko'rsatsa, ikkinchidan ot o'yinlarining Xorazm hududida ham o'ynalgani xabarini beradi. Chavandoz qizni otliq yigit quvalaydi, birgalikda ot quvishib tomosha ko'rsatadilar (Qilichev, 1988, s. 84). Xususan, Xorazm viloyatining shimolida joylashgan Gurlan tumanidagi "Kommuna" kolxozida yashagan 80 yoshli Xasan Jumamuratov qiz quvish o'yining machit yaqinida o'tkazilgan o'yinlarda o'tkazilganini, yigit qizni quvib yetib, uni quchoqlaganini ko'rganini, 10-15 yoshlarga yetganida bu uyin yo'qolib ketganini yozadi Qilichev, 1988, s. 85). Shuningdek, Xorazmda XIX asr oxirlari – XX asr boshlariga "oltin qoboq" o'yinining o'ynalgani haqida qariyalarning xotiralari mavjud.

O'zbek xalq og'zaki ijodida bo'riga alohida o'rin ajratilgan. O'zbek folklorchisi M. Jo'rayevning ta'kidlashicha, o'zbeklarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bir afsonada 92 bola bir tulum ichida tug'ilgan emish, otasi bo'ri bo'lgan bu bolalar keyinchalik 92 o'zbek urug'iga asos solgan (Jo'rayev, 1983, s. 13). Umuman, bo'ri obrazi o'zbek xalq dostonlaridan Ergash Jumanbulbul tomonidan aytilgan "Quntug'mish"da Gurkiboy va "Odilxon" dostonida, xalq ertaklaridan "Bo'ri qiz", "Cho'loq bo'ri"da tilga olingan (Jo'rayev, 1983, s. 13). O'zbek adabiyotida ko'pkari va uloqqa doimo murojaat etilganini ko'rish mumkin. Buning isboti sifatida mashhur o'zbek romanchisi, jadid adabiyotining yirik vakili Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasi (1916) avvalgi asarlari bilan tenglashtirib bo'lmaydigan darajada yuqori bo'lib, XX asr tongidagi o'zbek realistik adabiyotining cho'qqisi, realistik hikoyaning eng yaxshi namunasi hisoblanadi. Sababi Abdulla Qodiriy hikoyaning oxirida bolalik davrimning yodgori bo'lgani uchun ortiqcha o'zgartirishlar kiritmadim deb yozib qo'yganidan bilish mumkinki, o'sha davrlarda hatto Toshkentda ham ko'pkari/uloq o'yini zavq bilan o'ynalgan va chavandozlar har bir yosh yigitlar uchun mardlik va kuch-qudrat timsoli bo'lgan, uloq o'yinining barcha taassurotlari yosh Turg'unning his-tuyg'ulari bilan tasvirlangan (Jamilova, 2023, s. 208). Yozuvchi Tog'ay Murodning hali sovet davri yillaridayoq "Ot kishnagan oqshom" (1979) qissasi o'sha davrda yo'qolib ketish tahlikasi ostida qolgan milliy kurash, ko'pkari kabi o'yinlar, chavandozlarni adabiy bayon qiluvchi asarlar sirasiga kiradi. "Ot kishnagan oqshom" asarida "Kech kuzda yurtimizga yo'l oldim. Sattor chavandoz degich bilan topishdim. U menga

bir ot topib berdi. Men otlandim! Kunduzlari turli yurtlardan kelmish chavandozlar bilan ko'pkari chopdim. Necha bor otlardan yiqildim. Kechalari chavandozlar bilan gurung qildim. Chavandozlar do'mbira chalib, ko'pkarilardan so'yladi, otlardan so'yladi, chavandozlardan so'yladi. Uzun qish ko'pkarixona – ish joyim bo'ldi, chavandozlar hamxonam bo'ldi, otlar – birodarlarim bo'ldi...” degan satrlar bor (Tog'aymurod, 1994, s. 464; Xidirova, 2022, s. 52). Boshqa bir taniqli o'zbek yozuvchisi Oybek o'zining “Bolalik” xotira-qissasida ham “uloq o'yini”ning tasviri mavjud: “Uloq” xalqning qadimiy o'yini. Uni ilk bor ko'rgan Muso hang-mang bo'lib qoladi. “...Qalin odamlar orasidan jonivor ot o'qday uchib ketdi. Bir - ongina sarosimaga tushgan uloqchilar ko'pirgan, quturgan daryoday, duv etib, orqadan quvib ketdi. Uloqchilar biridan biri uloqni olib qochadi, yana butun otliq duv etib orqadan quvadi...” (Oybek, 1963, s. 91). Ko'rib turganimizdek, adabiyotda, xususan qissa va romanlarda ko'p bora bu ot o'yiniga murojaat qilinishi uning keng tarqalgani va ijtimoiy hayotda o'rin tutganini ko'rsatadi.

O'zbeklarning boshqa turkiy xalqlardan farqli ravishda bu o'yinga kiritgan yangilik va usullarini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Ko'p joylarda uloq o'yinidan avval “qiz quvdi” nomli ot o'yinini o'ynaganlar. Sirdaryo, Toshkent viloyati, Janubiy Qozog'iston, Asht (Tojikiston), Novqat (Qirg'iziston) uloq o'yini jarayonida “shog'uloq” o'yini ham o'ynaladi. “Shog'uloq” qadimiy ot o'yinlaridan biri bo'lib, yosh yigitlarning kuchini sinash va chiniqtirish maqsadida o'ynalgan. Bugungi kunda u ko'pincha to'y va bayramlar, ommaviy sayillarda daryo va jilg'alarning oqizib ketmaydigan, sekin oqadigan va kechuv qismida o'tkazilib kelinadi (Qoraboyev, Abdurahmanov, 2019, s. 177). Xususan, turk tadqiqotchilari o'zbek “ko'pkari”sining suvga yaqin hududlarda o'ynalganini ajratib ko'rsatadi (Alan, 2019, s. 86-109). Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi ko'plab tumanlarda ham “eshak ko'pkari”, “shog'uloq” deb nom olgan tomoshalar ko'pincha to'y va bayramlar munosabati bilan daryo qirg'og'ida o'tkazilgan (Tursunov, Rashidov, 2011, s. 258). “Shog'uloq” o'yinida avval uloqning boshi va qo'l-oyog'i alohida kesib olinib, kesilgan joylarning terisi yaxshilab tikilgan. Daryo qirg'og'iga borib, mahalla yetakchilaridan biri boshchiligida “bakovul so'zim. Hech kim g'irromlik qilmasin” deb uloq suvning o'rtasiga tashlangan va ephil va chaqqon chavandozlar uni suvda tortib olib bakovulga eltishga shoshilganlar (Qurbonov, 2009, s. 145). Sunnat to'ylarida ham ko'pkari musobaqasi o'tkazilgan. Ko'pkarichilarlaning yuzi yorug' bo'lsin deb oynaga qaratilgan. Ba'zan uloqni ya'ni, “zot”ni chavandozlar eltishi kerak bo'lgan toypon-maydonning ikki tomoniga olov yoqilgan. O'yin duoi fohialar bilan boshlangan. Surxon vohasida chavandoz o'rtaga tashlangan uloqni otlar

orasidan ajratib, bakovul turgan joyga eltib tashlasa, unga belgilangan sovrin, ya'ni "zot" berilgan (Qurbonov, 2009, s. 143).

O'zbeklarda uloqqa otlarni tayyorlash ham o'ziga xosdir. Ot 4-5 yoshlaridan ko'pkariga tayyorlanadi va sekin-sekin unga beriladigan yem miqdori ham ko'paytirib boriladi. Sentyabr oylarida otlarni kuchaytirilgan holatda yem bilan boqish fasli tugab boshqa jarayon boshlanadi, o'zbeklar yuganini tortib egar qoshiga bog'langan, yemish yeyishini taqiqlashni "qontaruv" deb atashgan. Ertalab va kun davomida o't va suv, 4-5 kilo yem berilgan, kechqurun esa "qontaruv" qilingan. Bu 20-25 kun davom etgan. Otlar qantarilganda ularning tanasi sovigan, sekin-sekin arg'umoqlar chopishga o'rgatilgan (Yuldashev, 2002, s. 341). Hatto o'zbeklar orasida "Qontarilgan ot qoziq atrofida aylanar" degan maqol ham uchraydi. Boysunliklarda otlar ko'pkaridan oldin 40 kun boqilib, 40 kun ularning tanasi sovilib, chavandozlar tomonidan ko'pkariga olib kelingan (Tursunov, Rashidov, 2011, s. 273). Otlarni o'rgatuvchilarni "aspjallob", ya'ni otni o'ziga jalb etuvchi deb ataganlar. Otlarning zotini mukammal darajada ajrata oladigan, yoshini, fe'l atvorini biladigan odamlar esa "sinchi" deb yuritilgan. O'zbekistonning janubiy hududlaridagi o'ziga to'q oilalar 5-7 kunlab, ba'zan xaftalab ko'pkari/uloq musobaqasi o'tkazilgan. Otlarga uloq o'yini o'tkaziladigan kuni otlarga ham alohida e'tibor berilib, mo'ljaldan ortiq suv yoki yem berilmaydi, yomon ko'zlardan asralgan. Hech qachon qamchi bilan boshiga urilmagan. Uloq o'yini o'tkaziladigan joy esa toypon deb atalgan. Maydon-toyponda o'yinni kuzatib borish va uni adolatli boshqarish uchun nazoratchilar – bakovullar o'tirishi uchun mo'ljallangan chortoq ham bo'lgan. U ko'pkari o'tkaziladigan maydonlarda doira yoki to'rtburchak shaklida bo'lib, toshlardan yasalgan. chavandozlarning maxsus tayyorlangan uloq o'yini kiyimlari – boshni asraydigan qamchi va zarbalardan saqlaydigan qalin telpagi, ustida po'stini, paxtali ishton (shim)i, oyog'ida etigi, qo'lida qamchisi bo'lgan.

"Shog'uloq"dan tashqari toypon-maydonga hamma yig'ilgach, otlarni tanasini qizdirmoq uchun "qoqma" o'yini o'tkazilgan. Unda yosh chopag'onlar qatnashib, qatnashchilar soniga qarab ko'pkari o'ynaladigan maydon-toyponga ikkita yoki uchta uloq tashlangan. Yosh chavandozlarni ephillikka o'rgatish uchun bu o'ziga xos ko'pkari tayyorgarligi edi. Qo'lga kiritilgan uloq mukofot sifatida yosh chavandozlarga berilshgan. Bir soatcha davom etgan qoqma – ot qizdirish o'yini tugagach, haqiqiy uloq o'yini boshlangan. "Shog'uloq" yoki "eshak ko'pkari" o'yini aynan kichik yoshdan o'smir yoshdagi o'g'il bolalarni ko'pkariga o'rgatish va mahoratini oshirish maqsadida o'ynalgan. Mazkur sinov va tayyorgarlik o'yinlari ko'pincha to'y, sayillar va bayramlar asnosida daryo bo'ylarida o'tkazilgan. Kalla ko'pkari o'yini folklorshunos olimi Guljahon Mardonova tomonidan Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi G'ishtli qishlog'idan yozib

olingan. Unga ko'ra, o'z eshagi bilan qatnashgan bolalar ulovlariga minib o'yinga tayyor holda turadilar. O'yinni boshqaruvchi bironta uloq sifatida eski janda(eski ustki kiyim. Mato bo'laklaridan (quroq usulida) uzun va keng qilib tikilgan)ni o'rtaga tashlaydi. Bolalar "uloq"ni olishga harakat qiladilar. Xullas, Qashqadaryoda bolalar shunday o'yinlar asosida katta maydon ko'pkarilari uchun chiniqtirib borilgan (Mardonova, 2022, s. 72).

O'zbekistonda uloq o'yini bugungacha o'z ahamiyatini yo'qotmasdan kelayotgan hududlardan biri bu Samarqand viloyatidir. Samarqandda juda ko'p o'z urug' nomini yaxshi eslaydigan o'zbek urug'lari yashab kelmoqda, ko'pkari o'yini ishtirokchilari o'z urug'i yoki qishlog'i nomidan o'yinda ishtirok etgan. Samarqandda ko'pkari (ko'kbo'ri) odatda mart va oktyabr oylarida to'y va voyaga yetmaganlarning sunnat to'ylari munosabati bilan o'tkazilgan. Odamlar nafaqat yaqin hududdan, balki uzoq joylardan ham kelishgan (Malikov, 2021, s. 450). XIX-XX asrlarda Samarqanddagi ko'pkari o'yinining tarixi haqida tadqiqot olib borgan A. Malikov fikricha, o'rta asr manbalarida Samarqanddagi ko'pkari haqida hech qanday eslatma yo'q, bu atama faqat o'zbek xalq ertaklari – dostonlarida uchraydi. Ko'pkari Samarqand shahar madaniyatiga so'nggi o'rta asrlarda Samarqand vohasida yarim ko'chmanchi aholi guruhlari ommaviy joylashtirish jarayoni sodir bo'lgan davrda kirib kelgan, degan fikrni bildiradi. Buxoro amirligining hukmron sulolasi – mang'itlar ko'pkarida faol qatnashganliklari va bu bilan bir tomondan o'zlarining harbiy tayanchi bo'lgan yarim ko'chmanchi o'zbeklarga yaqinligini ko'rsatgan. Ularning kuchi va boshqa tomondan, ularning ishtiroki bu o'yinning aholining qolgan qismi oldida obro'li maqomga ega bo'lishini ta'minlagan (Malikov, 2021, s. 450).

O'zbekistonda sovet hokimiyati yillarida ko'pkari (uloq) o'tkazish, mafkuraga to'g'ri kelmaydi deb qat'iy man etildi. Otlar davlatga go'sht rejasini bajarish baxonasida topshirildi (Tursunov, Rashidov, 2011, s. 273).

Xulosa

Qisqa qilib aytganda, ko'pkari o'yini boshqa turkiy xalqlarda bo'lgani kabi o'zbeklarda ham keng yoyilgan va kunimizgacha davom etib kelayotgan etnosport turlaridan biridir. Uning shakllanish sabablari ijtimoiy hayotda ko'ngilocharlik va jangovor tayyorgarlik vazifasi edi. Ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi turklar o'z mollari uchun yaylov izlayotgan yoki qarorgohlarida o'tirganlarida har qanday vaqtda hujumga duchor bo'lish xavfi bor edi. Bundan tashqari, xalq (bo'dun) xoqon tomonidan istalgan vaqtda urushga chaqirilishi mumkin edi. Buning uchun har bir turk yosh yigitlari jismoniy madaniyatni rivojlantiruvchi mashqlarni bajarishi kerak.

Mashqlarda o'yin-kulgi tuyg'usi mavjud bo'lsa-da, bu aslida urush mashqlari edi. Turli manyovrlarni ot ustida bajara oladigan askar turk harbiy jamiyatining asosiy tayanchi sanalgan. Biroq, tarixning qaysi zamonida o'zbeklarning ijtimoiy hayotida ko'pkari/ko'kbo'ri o'yini paydo bo'lganini aniqlashda yozma manbalar bizga yordam beradi. Afsuski, turkiy xalqlarning ijtimoiy hayoti haqida asosiy ma'lumotlarni beruvchi Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida bir qator o'yinlar bilan birga bu o'yin nomi tilga olinmaydi yoki unga o'xshash o'yinga biron ishora uchramaydi. Shuningdek, biz boshqa tarixiy asarlarda XV-XVI asrlarda ham tilga olinganini ko'rmaymiz. Albatta, bu holat ko'pkari/ko'kbo'ri o'yinining kech zamonlarda shakllanganini anglatmaydi, uni paydo bo'lishida uchta mashhur ot o'yini – oltin qoboq, chavgon, qiz quvish/qiz quvmoq muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, qiz quvish o'yinida to'ydan oldin so'yilib quda tomonga olib kelingan go'shtni qiz tomondan erkaklar olib qochishi, uni tutish uchun kuyov tomondan erkaklar otda quvalashi kabi shakli ham juda eski zamonlarda mavjud bo'lganini tadqiqotchilar ta'kidlaydilar. Fikrimizcha, ko'pkari o'yini aynan shu o'yinning takomillashtirilgan va nomi yillar davomida o'zgargan shaklidir. Bu yerda shuni ta'kidlamoq kerakki, o'zbek qabilalari XVI asrdan so'ngra bu ot o'yinini yanada keng yoyilishida katta xizmat qilganlar. Natijada u oltin qoboq va qiz quvish o'yinidan ustun kelib ommalashib ketgan, afg'on o'zbeklari va Tojikistonda "bo'zkashi" sifatida keng yoyilishining sababi ham o'zbek urug'larining faol migratsiyasi bilan bog'liq.

Foydalanilgan Adabiyotlar

- Abdullayev, F. A. (1961). *O'zbek tilining Xorazm shevalari*. Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi Nashriyoti.
- Alan, S. (2019). Dîvânü Lugâti't-Türk'te Spor ve Rekreatif Faaliyete İlişkin Terimler. Serhat Özdenk ve Ozan Yılmaz (Ed.). *Spor ve Rekreasyon Araştırmaları Kitabı-1*. Cilt (ss. 86-109) içinde. Konya: Çizgi Kitabevi Yayınları.
- Amanjol, K. (2015). Kazaxskie nasionalnie konno-sportivnie igri (XIX – nachalo XX vv.), *Turk elderinin salttuu sporttuk oyundari – Türk Halklarının Geleneksel Spor Oyunları*. Tyzgöndör: A. Mokeev, F. Unan, O. Karataev, O. Yorulmaz, J. Alimbaev, J. Buyar. Bishkek.
- Anorboyev, A. (2008). Dovonning samoviy otlari. *Fan va turmush*. 3-5 Son. Toshkent. 84-95.
- Axmetov, N., Mamirqylov, Q. (2017). Qazaqtiñ Ylttiñ Oyini Asiq Atuu Ədisterin Yyrenu. *Ədistemeliknyşqauliq*. Taraz: Taraz Universiteti.

- Bichurin, N. Ya. (Iakinf) (1950). *Sobranie Svedeniy o Narodax, Obitavshix v Sredney Azii v Drevnie Vremena. V 3-x tomax.* M.- L.: Izd. AN SSSR. Tom I.
- Jamilova, B. (2023). *O'zbek va Turk Bolalar Adabiyotidagi Mushtarak Tuyg'ular.* Buxoro Davlat Universiteti İlimiy Axboroti. №3. Buxoro. 203-210.
- Jo'raev, M. (1983). Ko'kbo'ri Avlodlari. *Fan Vaturmush.* № 3. 12-13.
- Jo'raev, M. (1993). Ko'pkarimi Yoki Ko'kbo'ri?. *Xalq So'zi.* 10 Mart.
- Jo'raev, M. (2021). "Oltin Qoboq" Dostonining Tarixiy Asoslariga Doir. *Ta'lim va İnnovasion Tadqiqotlar.* Buxoro. 1-son. 132-141.
- Kljashstornyj, S. G. (2006). Al-Bīrūnī's Version of an Old Turkic Genealogical Legend. on the Semantics of Turkic Baraq. *Памятники древнетюркской письменности и этнокультурная история Центральной Азии. Санкт-Петербург.* Наука. 446-454.
- Kuznetsov, P. F. (2018). Botayskaya Kultura Pozdnego Eneolita: Pro Et Contra Sushestvovaniya Domashnix Loshadey. *Priroda. Vipusk 7.* Samara. 16-19.
- Malikov, A. M. (2021). Kupkari Kak Element Gorodskoy İdentichnosti i Kulturi Samarkanda v XIX - Nachale XX v. *Markaziy Osiyo Tarixi va Arxeologiyasi: An'analar, İnnovasiyalar va İstiqbollar Xalqaro İlimiy-Amaliy Anjuman Materiallari.* Toshkent. 448-451.
- Mardonova, G. A. (2022). *O'zbek Milliy O'yinlari.* Toshkent: Bookmany Print.
- Meliev, X. A. (2023). Alisher Navoiy Asarlarida Etnosport Turlari, Xalq O'yinlari Haqidagi Qarashlari. *International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers.* 11 (5). 300-304.
- Oybek (1963). *Bolalik. Xotiralarim.* Toshkent: Yosh Gvardiya.
- O'zbek Milliy Sport Turlari va Xalq O'yinlari Ensiklopediyasi* (2022). Toshkent.: Zamin Nashr.
- Qilichev, T. (1988). *Xorazm Xalq Teatri.* Toshkent, G'afur G'ulom Nomidagi Adabiyot va San'at Nashriyoti.
- Qoraboev, U., Abdurahmonov, I. (2019). *O'zbek Xalq O'yinlari.* Toshkent.
- Qurbonov, A. (2009). Shimoliy Surxon Vohasi Aholisi An'anaviy Madaniyatining Etnik va Lokal Xususiyatlari (XIX Asr Oxiri – XX Asrning Bi-

- rinchi Yarmi). *Tarix Fanlari Nomzodi Ilmiy Darajasini Olish Uchun Yozilgan Dissertasiya*. Toshkent.
- Sarimsoqov, A. A. (2010). O'zbeklarning Taqvimiy Marosimlari (Farg'ona vodiysi Materiallari Asosida). *Tarix Fanlari Nomzodi Ilmiy Darajasini Olish Uchun Yozilgan Dissertasiya*. Toshkent.
- Shafoatov, A. N. (2009). Tadjikskaya Sportivnaya Terminologiya. *Avtoreferat Dissertatii Na Soiskanie Uchenoy Stepeni Kandidata Filologicheskix Nauk*. Dushanbe.
- Tabinbaev, A, Kazakov, B. (2015). *O'zbek Halk Milliy O'yinlarining Rivojlanishi, Yoshlarni Tarbiyalashdagi Ahamiyati, Pedagogik Ta'rifi va Maktab Programmasidagi O'rni* (O'quv Metodik Qo'llanma). Nukus.
- Tog'ay, M. (1994). Ot Kishnagan Oqshom. *Qissa*. Toshkent: Sharq.
- Tursunov, S., Rashidov, Q. (2011). *Boysun*. Toshkent: Akadem Nashr.
- Türkmen, M. (2020). Türkistan'ın Kadim Bir Atlı Oyunu: Kök-Börü. *Sporda Bilimsel ve Akademik Yaklaşımlar 6* (ss. 30-59) içinde. Ankara: Gece Kitaplığı.
- Xalq Harakatli O'yinlari Nazariyasi va Amaliyoti Darslik* (2014). Toshkent.
- Xidirova, M. R. (2022). Tog'ay Murod Asarlari Poetikasi va İjod Jarayonining O'rganilishi. *Filologiya Fanlari Bo'yicha Falsafa Doktori (Phd) Ilmiy Darajasini Olish Uchun Taqdim Etilgan Dissertasiya*. Jizzax.
- Xodjaev, A. (2008). *Buyuk Ipak Yo'li: Munosabatlar va Taqdirilar*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
- Yuldashev, S. (2022). Uzbekske Obichai: Ulaq (Ko'pkari). *Etnicheskij Atlas Uzbekistana* (ss. 331-343) içinde. Tashkent.
- Zahiriddin Muhammad Bobur. (2008). *Boburnoma*. Toshkent: O'qituvchi.
- Zaxarov, S. V. (2010). K Voprosu o Proisxojdenii Botayskoy Kulturi. *Vestnik Arxeologii, Antropologii i Etnografii*. 1 (12). 49-58.